

## RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**Ibragimova Dilobar Turobovna o'qituvchi**

*Ipak yoli innovatsiyalar universiteti*

**Annotatsiya:** Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashning muhim makroiqtisodiy omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish dasturi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinalarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rinni tutayotgan kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi.

**Kalit s'ozlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ish o'rinalarini, aholining daromadlari, kichik korxonalar, mikrofirmalar, moliyaviy tadbirkorlik, maslahat tadbirkorligi.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini ustuvor rivojlantirishga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyat larini kengaytirish to'g'risida"gi 2019-yil 13-avgustdagи PF-5780-sон Farmoni[1] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida 2019-yil 13-avgustdagи PQ-4417-sон qarorlarini qabul qilinishi[2]

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu soha mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o‘tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo‘llardan hisoblanadi. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari majmuini tashkil etish jarayoni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida bu turdagи korxonalar texnologik yangiliklarni joriy etishda ham g‘oyat katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimiz 2000-yillarning boshidanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Jumladan, mamlakatimizda Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi, 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi, uni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish bo‘yicha Davlat dasturi qabul qilindi[3]. “Inson manfaatlarini ta’minlash va mahalla taraqqiyoti yili”, “Raqamli O‘zbekiston –2030” strategiyasi bo‘yicha bir nechta ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha soha va sohalarga, birinchi navbatda, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog’liqni saqlash va qishloq xo‘jaligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat berilib “raqamli texnologiyalar” tizimini tubdan yangicha turlarini ishlab chiqish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda[4]. Bu borada, O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Davlat dasturida: «... kichik va o‘rta biznes korxonalari o‘rtasida bevosita iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish hamda yagona elektron bazani yaratish va uning qo‘sishma modullarini ishlab chiqish bo‘yicha biznes jarayonlarni o‘rganish, texnik topshiriqlarni ishlab chiqish...» kabi vazifalar belgilab berilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu kichik biznesdir. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiy o‘sishga, ishsizlikni kamaytirishga va umuman iqtisodiyot bozorlarini to‘ldirishga yordam beradi. Kichik biznes sub’yektlarining ko‘p sonli sub’yektlari ular o‘rtasidagi raqobatni kuchaytiradi, shuning uchun har bir subyekt raqobatbardoshlikni oshirishga va o‘zi uchun eng foydali pozitsiyani egallashga harakat

qiladi. Shuning uchun biznesni boshqarishning turli strategiyalarini qo'llash kichik korxona uchun ayniqsa muhimdir. Korxona boshqaruvi rahbariyati kuchli raqobat muhitida korxonaning o'z mavqeini saqlab qolishini ta'minlash uchun bir yoki hatto bir nechta strategiyalarni tanlashi kerak. Davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishining ko'rsatkichlaridan biri shu davlatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi.

Raqamli iqtisodiyot -bu siyosiy - iqtisodiy, ilmiy - ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib,raqamli iqtisodiyot sharoitida "raqamli tadbirkorlik" alohida ahamiyatga egadir. Raqamli iqtisodiyotni asosiy vazifalar:

- raqamli biznes va tadbirkorlikni yaratish;
- korxonalarni barqaror rivojlantirishga yordam beruvchi investitsiyalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish;
- innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi malakali kadrlar bilan ta'minlash.

Raqamli iqtisodiyot kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz zarurki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir: texnologik va boshqaruvni egiluvchanligini ta'minlay olish.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi"da "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan hamda bu maqsadni amalga oshirish uchun qator vazifalar belgilab qo'yildi.

- ✓ "Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "Ochiq muloqoti"ni o'tkazish.
- ✓ Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish. Sharoti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shartsharoitlar yaratish.

- ✓ Ilg‘or xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish.
- ✓ 2026-yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish.
- ✓ Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish.
- ✓ Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma’lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish. Qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish.
- ✓ Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo‘l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish”. Kichik biznes cheklangan kapital, yirik kompaniyalar bilan raqobat va hukumat aralashuvi kabi muammolarga duch keladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkor ishlab chiqarishni yangidan yangi kombinatsiyalarni yaratadi, o‘z faoliyatiga turli xildagi yangi texnologiyalarni tatbiq etadi. Hozirgi vaqtida dunyo miqiyosida tadbirkorlikni yangi ko‘rinishlari, ya’ni raqamli tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, vechur tadbirkorligi kabilar rivojlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning yangi bilimga yo‘naltirilgan tarmoqlarini paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion sektorini, shuningdek “raqamli tadbirkorlikni” shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini yaratadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida “raqamli tadbirkorlik” aloxida axamiyatga ega bo‘lib, unda tadbirkorlik faoliyatida mukammal innovatsion qarorlarni qabul qilish muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida “raqamli tadbirkorlikni” rivojlantirish innovatsion jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari:

- maxsus raqamli platformalar va ekotizimlar orqali iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- shaxsiylashtirilgan xizmat modellarini qo'llash;
- kompyuter tarmog'ida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarining bevosita hamkorligi;
- almashish iqtisodiyotini tarqatish;
- individual ishtirokchilar hissasi;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shuki, uning uchun mintaqaviy omillar qoida tariqasida, investitsiyalar jalb etish jarayoniga ta'siri jihatidan ustunlik qiladi. Investitsiyaviy muhit tahlilini tarmoqlar bo'yicha olib borish zarurligini ko'rsatib o'tish kerak.

Chunki, ijobjiy investitsiyaviy omillar turli tarmoqlar uchun o'ziga xos jihatlarga ega. Shu bois ham, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda ish muhitini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar faol davom ettirilmoqda.

Bu esa o'z navbatida iqtisodiyot tarmoqlari ishlab chiqarish hajmining ortishiga, unda faoliyat ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlar sonini ortishiga olib kelmoqda. Natijada, sanoat ishlab chiqarishda, qurilishda, chakana savdo aylanmasida va aholiga pullik xizmatlarda kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi ta'minlandi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari(mlrd. so'm)

No	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni ( dexxon va fermer xo'jaliklarisiz,dona)	394657	468942	551636	602344	673397

2	Ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz,dona)	279891	341890	417244	467096	503804
3	Iqtisodiyotda jami bandlar soni (ming kishi)	18949	19158,2	19334,9	19517,5	20095,5
4	Kichik biznesda bandlar soni (ming kishi)	10318,9	9865,7	10080,6	10131,1	10278,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlari

Bugungi kunda kichik biznes va xususuiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi natijasida iqtisodiy sohalardagi ko‘rsatkichlari ham bir necha barobar ortmoqda.Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz 2019-yilga nisbatan 2023-yilda -1.7 marta,ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub’ektlari soni,dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz -1.8 marta,iqtisodiyotda jami bandlar soni (ming kishi hisobida) -1.1 marta oshganini ko‘rishimiz mumkin.Kichik biznesda bandlar soni 2019- yilda 10348.9 ming kishini tashkil qilgan,ammo COVID-19 sababli bu ko‘rsatkich tushgan va 2020-yilda 9865.7 ming kishiga yetgan.So‘ngi yillarda bandlar soni yana o‘sish sur’atlarini ko‘rsatdi va 2023-yilda 10278.9 ming kishiga yetdi.

Kichik biznes va tadbirkorlikning qaror topishi mamlakatimizda juda ko‘p ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishini inobatga olib, ularni rivojlantirish istiqbollarining zarurligini belgilovchi omillar aniqlandi.

Bular quyidagilarda namoyon bo‘lishi asoslandi:

- kichik biznes va tadbirkorlikning oilalar moddiy farovonligini ta’minlashdagi o‘rni;

- oila a‘zolarining o‘zini-o‘zi ish bilan band qila olish imkoniyatlari;
- kichik biznes va tadbirkorlikning YaIMda, kasanachilikda, sanoat sohasida, qishloq xo‘jalik mahsuloti xajmida, qurilish ishlari, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi hissasi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish faqat texnologik, moliyaviy xarakterdagи qarorlarni qabul qilish, xodimlarning raqamlashtirishni joriy etishga tayyorgarlik darajasini baholash zarurligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va ma’lumotlarni ishlab chiqish hamda joriy etishni boshqarish uchun tashkiliy madaniyatga kiritilgan normalarning izchil ro‘yxatini ishlab chiqishga qaratilgan masalalar hal qilinishi kerak. Korxona to‘playdigan, o‘zgartiradigan, ishlatadigan har qanday ma’lumotlar axloqiy javobgarlikka rioya qilish zarurligiga olib keladi.

Butun dunyoda kichik biznes iqtisodiy o‘sish va barqarorlik omili hisoblanadi. Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, xorijiy mamlakatlarida ishlab chiqarish sanoatining yarmidan ko‘pi kichik va o‘rta biznes tomonidan ishlab chiqariladi. Kichik biznesning moslashuvchanligi uni osongina qayta ishlatishga imkon beradi. Asosiysi shundaki, inqiroz davrida kichik biznesda bandlik barqarorligicha qoldi. Shunday qilib, kichik biznesni rivojlantirish davlat siyosatining umuman iqtisodiyotda ham, xususan, qishloq xo‘jaligida ham ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Kichik biznes tarmog‘i mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiy tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi, ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi, shu orqali qishloq aholisining ijtimoiy ta’minotini oshiradi, raqobat muhitini yaratadi, iste’molchilarni yangi tovar va xizmatlar bilan ta’minlaydi hamda yirik biznesning rivojlanishiga yordam beradi.

Kichik biznesni turli sohalarda, jumladan, chakana savdo, oziq-ovqat va ichimliklar, professional xizmatlar, ishlab chiqarish va texnologiyada topish mumkin. Ular ko‘pincha ma’lum bir maqsadli bozorga ixtisoslashgan mahsulotlar yoki xizmatlarni taqdim etadigan ko‘proq shaxsiy va mahalliy e’tiborga ega. Kichik biznes cheklangan kapital, yirik kompaniyalar bilan raqobat va hukumat aralashuvi kabi muammolarga duch

keladi. Biroq, ular, shuningdek, o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga tezda moslashish qobiliyatiga ega bo‘lganligi uchun moslashuvchanlikka ega va yirik korporatsiyalar uchun muammo bo‘lgan holatlar (mijozlar bilan ishlash, xodimlar bilan munosabatlar va hokazo)da yengillik bilan masalani hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umuman olganda, kichik biznes sog‘lom iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, innovatsiyalar, ish o‘rnlari yaratish va iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va bozorning xilma-xilligi va raqobatbardoshligini shakllantirishda juda muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to‘g’risida”gi 2019-yil 13-avgustdagи PF-5780-sон Farmoni

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g’risida”gi 2019-yil 13-agustdagи PQ-4417-sон qarori.

3.”2022 - 2026” yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sон.

4.Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hukumat tizimini takomillashtirish to‘g’risida Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI Toshkent – 2023.